

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va MMKga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, avtomobilsozlik sohasidagi xizmatlar bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi avtomobilsozlik sohasidagi xizmatlar tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi:

Kasbiy standartlarni kelgusida ishlab chiqish uchun avtomobilsozlik tarmog'i talablarini hisobga olgan holda Milliy malaka tizimi darajaviy malaka vakolatini tavsiflash, avtomobilsozlik tarmog'i yo'nalishlari uchun ta'lim tizimini shakllantirish, kasbiy standartlar, kasbiy ta'lim va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda xodimlar hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilari malakasiga umumiy talablarni belgilash, avtomobilsozlik tarmog'ining umumiy strategiyasi va xodimlarni tayyorlash tizimini shakllantirish, shuningdek, muayyan malakaga ega bo'lish hamda malaka darajasini oshirish orqali mehnat faoliyati davomida lavozim bosqichlarini rejalashtirish.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

texnologik tayyorgarlik – avtomobil ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalar, uskunalar va dasturiy vositalar bilan ishlash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish holati.

sanoat xavfsizligi madaniyati – ishlab chiqarish muhitida mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlovchi, xodimlar ongida shakllangan mas'uliyat va ehtiyotkorlik darajasi.

modullashtirilgan ta'lim dasturi – kasbiy malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga mo'ljallangan, modul asosida tuzilgan o'quv rejalari va dasturlari majmui.

kasbiy rivojlanish yo'li – avtosanoatdagi biror kasb yoki lavozim doirasida xodimning bilim va ko'nikmalarini oshirib borish orqali yuqoriroq malaka darajalariga o'sib borish imkonini beruvchi tizimli yo'nalish.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabr "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4545-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabr "O'zbekiston Respublikasining 2021 – 2023-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabr "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori;

Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevral "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4954-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabr "O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'llari tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5890-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son Qarori.

"O'zavtosanoat" AJ xodimlari ahloq-odob qoidalari;

"O'zavtosanoat" AJ xodimlari ichki mehnat tartibi qoidalari;

"Kasb va lavozimlarga qo'yiladigan malaka talablariga doir normativ hujjatlar".

Asosiy qisqartmalar:

AJ – Aksiyadorlik jamiyati;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori ;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MDH – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi;

b.g.k. – Boshqa guruhlariga kiritilmagan;

BMI – Bitiruv malakaviy ishlari.

CAD – Computer-Aided Design;

UX/UI – User Experience / User Interface;

IT – Information Technology (Axborot texnologiyalari);

R&D – Research and Development (Tadqiqot va rivojlantirish);

TTPU – Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti;

HRD – Human Resources Development (Xodimlarni rivojlantirish);

YoMM – Yoqilg'i-moylash materiallari;

GM-GMS – General Motors Global Manufacturing System (Global ishlab chiqarish tizimi);

MHXS – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;

EHM – Elektron hisoblash mashinalari;
NO‘V va A – Nazorat o‘lchov vositalari va avtomatika;
YAMMT – Yagona milliy mehnat tizimi;
TXS – Texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasi;
IAX – Ichki audit xizmati;
TMB – Tovar-moddiy boyliklar;
SQ – Supplier Quality (Yetkazib beruvchi sifati) yoki Safety/Quality;
BIQ – Built-In Quality (Jarayonga singdirilgan sifat);
SCADA – Supervisory Control And Data Acquisition;
SAP – Korxona resurslarini rejalashtirish tizimi dasturi.

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Avtomobilsozlik sohasidagi xizmatlar tarmog'i avtomobil transport vositalari va ularning butlovchi qismlarini loyihalash, ishlab chiqarish, yig'ish, sinovdan o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika qilish, ta'mirlash hamda ekspluatatsiya jarayonida qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarmoq avtomobilsozlik sanoati infratuzilmasining barqaror ishlashini ta'minlash, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik, ekologik va texnologik talablariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan.

Avtomobilsozlik sohasidagi xizmatlar sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat;

G – seksiya Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash;

N – seksiya Tashish va saqlash.

O'zbekiston Respublikasida Avtomobilsozlik sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	28. Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	28.1 Umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish.	28.11 Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish.	28.11.0 Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish.
2.		29. Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	29.1 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish.	29.10 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish.	29.10.0 Motorli transport vositalari ishlab chiqarish.
3.			29.2 Avtotransport vositalari uchun kuzovlar ishlab chiqarish.	29.20 Avtotransport vositalari uchun kuzovlar ishlab chiqarish; treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish.	29.20.0 Avtotransport vositalari uchun kuzovlar ishlab chiqarish; treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish.

4.			29.3 Avtotransport vositalari uchun butlovchi qismlar va aksessuarlar ishlab chiqarish.	29.31 Avtotransport vositalari uchun elektr va elektron butlovchi qismlar ishlab chiqarish.	29.31.0 Avtotransport vositalari uchun elektr va elektron butlovchi qismlar ishlab chiqarish.
5.				29.32 Avtotransport vositalari uchun boshqa butlovchi qismlar va aksessuarlar ishlab chiqarish.	29.32.0 Avtotransport vositalari uchun boshqa butlovchi qismlar va aksessuarlar ishlab chiqarish.
6.	G – seksiya Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	45 Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash	45.2 Motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	45.20 Avtomobillar va yengil motorli transport vositalarini texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	45.20.1 Avtomobillar va yengil motorli transport vositalarini texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash
7.			52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat	52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar	52.21.0 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar
8.	N – seksiya Tashish va saqlash	52 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati		52.29 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari	52.29.1 Temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	12190	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan shu kabi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, b.g.k.
2.	13211	Ishlab chiqarish sanoati, energiya ta'minoti, suv ta'minoti, chiqindilarni yig'ish va tozalash sohalarida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari;
3.	13242	Avtomobil transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari;
4.	21411	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandislar;
5.	21441	Muhandis-mexaniklar (umumiy);
6.	21451	Muhandis-kimyogarlar;
7.	21642	Transport va infratuzilmani rejalashtiruvchilar;
8.	24211	Boshqaruvni tashkil etish bo'yicha maslahatchi;

9.	31141	Elektronika sohasidagi texniklar;
10.	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy);
11.	31299	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan brigadirlar, b.g.k.
12.	43221	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) mahsulotlarni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar;
13.	43232	Transport dispetcherlari (temir yo'l transporti dispetcherlaridan tashqari);
14.	71265	Santexnik va texnologik tizimlarni ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi chilangarlar;
15.	71321	Metall bo'yoqchilari;
16.	72121	Payvandlovchilar;
17.	72212	Presslovchilar va shtamplovchilar;
18.	72220	Chilangar-asbobsozlar va shunga o'xshash faoliyat ishchilari;
19.	72232	Avtomatlashtirilgan va yarimavtomat liniyalar operatorlari va sozlovchilari;
20.	72242	Materiallarni silliqlovchilar;
21.	72311	Mexanik transport vositalarini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar;
22.	72333	Sanoat va texnologik uskunalarni sozlash va ta'mirlash;
23.	82110	Avtotransport vositalari, dastgohlar, mexanizmlar va asbob-uskunalarini yig'ish bo'yicha chilangar;
24.	82121	Elektr asboblari va uskunalarini yig'uvchilar;
25.	82190	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan buyumlarni yig'uvchilar, b.g.k.
26.	83120	Tormoz ishchilari, o'tkazgichlar va ulagichlar;
27.	83220	Yengil avtomobil haydovchilari;
28.	83310	Avtobus, trolleybus va tramvay haydovchilari;
29.	83320	Yuk tashuvchi avtomobil haydovchilari;
30.	83431	Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari;
31.	83440	Yuk ortuvchi mashinalar haydovchilari;
32.	93299	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan ishlab chiqarish sohasida ishlaydigan malakasiz ishchilar, b.g.k.
33.	93330	Yukchilar;

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston avtomobil sanoati Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 5-noyabrdagi 509-son qaroriga asosan tashkil etilgan "UZ-DAEWOO Auto" qo'shma korxonasidan boshlandi. 1993-yilda korxona rasmiy tashkil topdi, 1994-yilda zavod qurilishi boshlandi va 1996-yilda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2008-yilda General Motors (GM) korxonaning 25% aksiyalariga egalik qilib, "GM Uzbekistan" deb nomlandi. 2019-yildan boshlab kompaniya to'liq O'zbekiston mulkiga o'tdi va "UzAuto Motors" nomi ostida faoliyat yuritmoqda.

Kompaniyalar yirik shaharlar bilan bir qatorda Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Tojikiston va boshqa MDH davlatlariga eksport jarayonlarini amalga oshiradi.

"O'zAutosanoat" AJ tuzilmasi avtomobil sanoati sohasida keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatuvchi bir qancha korxonalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu korxonalarga quyidagilar kiradi:

- “UzAuto Motors” (yengil avtomobillar) asosiy zavod: Andijon viloyati, Asaka shahrida joylashgan. Asosiy mahsulotlari: Chevrolet brendi ostidagi avtomobillar (Tracker, Onix, Cobalt). Yiliga oʻrtacha ishlab chiqarish hajmi: 300 000 – 350 000 dona avtomobil.

- “MAN Auto Uzbekistan” (yuk mashinalari), MAN rusumli yuk avtomobillari, maxsus texnika va tirkamalar ishlab chiqaradigan Oʻzbekiston - Germaniya qoʻshma korxonasi. Kompaniya 2009 yilning avgust oyida tashkil etilgan. Zavod Samarqand shahrining chekkasida joylashgan. Rejaga koʻra, yiliga 500 dan 1500 gacha yuk mashinalari ishlab chiqariladi

- “SamAuto” (avtobus va yuk mashinalari) Samarqand avtomobil zavodi 1996-yilda oʻrta sigʻimli avtobuslar, yengil va oʻrta yuk avtomobillarini ishlab chiqarish maqsadida tashkil etilgan. Oʻz faoliyatini 1999 yil 19 martda boshlagan. 2006 yildan hozirgacha esa Isuzu brendi ostida ishlab chiqarilgan. Ayni paytda zavodda 4 rusumdagi avtobus va 5 rusumdagi yuk avtomobili ishlab chiqarilmoqda.

- 2022-yilda Xitoy-Oʻzbekiston qoʻshma korxonasi “BYD Uzbekistan Factory” tashkil etildi. Jizzaxda qurilgan zavod Xitoydan tashqarida Xitoyning BYD kompaniyasining yengil avtomobillarini yigʻish boʻyicha birinchi zavodiga aylandi. Birinchi bosqichda yillik ishlab chiqarish quvvati 50 ming donani tashkil etdi, ikkinchi bosqichda (2027–2028 yillarda) 200 ming dona va uchinchi bosqichda (2030 yildan) 500 ming donaga yetkazish rejalashtirilgan

2014-yil boshida Chevrolet Damas modeli Asaka zavodida ishlab chiqarish toʻxtatildi va yangi “GM Uzbekistan Xorazm” avtomobil zavodi tashkil etilgan. 2015-yil sentabridan “GM Uzbekistan Xorazm” zavodida 2004-yilda ishlab chiqarish toʻxtatilgan Chevrolet Labo avtomobilini yigʻish qayta tiklandi.

Bugungi kunda “Oʻzavtosanoat” Aksiyadorlik Kompaniyasida 30 mingdan ortiq ishchi oʻrniga ega 60 dan ortiq tarmoq korxonalari va tashkilotlar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari Aksiyadorlik Kompaniyasi 200 dan ortiq chet el korxonalari bilan hamkorlik aloqalari oʻrnatilgan. “Oʻzavtosanoat” AJ oʻnlab yirik va oʻrta korxonalar bilan bir qatorda Koreya, Italiya, Germaniya va Yaponiya kabi xorijiy davlatlar kapitali bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalarni birlashtiradi.

“Oʻzavtosanoat” kompaniyasi oʻz korxonalari uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida bir qator oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorliklar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TTPU):

Hamkorlik yoʻnalishlari: TTPU bilan “dual degree” dasturi amalga oshirilmoqda, bunda hozirgi kunda 173 nafar xodim tahsil olmoqda. Shuningdek, 150 nafardan ziyod korxona xodimlari oliy taʼlim muassasalarida bakalavriat va magistratura yoʻnalishlarida kompaniya hisobidan oʻqitilmoqda.

2. Toshkent shahridagi Inha universiteti va Singapur menejmentni rivojlantirish instituti:

“UzAuto Motors” AJ ushbu universitetlar bilan hamkorlik memorandumlari imzolagan. Ushbu memorandumlarda doirasida ishlab chiqarish korxonasi bilan ilmiy

tadqiqot loyihalari, texnologik va malaka stajirovkalari, qo'shma ilmiy loyihalar, seminarlar va konferensiyalar o'tkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, "O'zavtosanoat" AJ Respublikadagi muhandislarni tayyorlovchi xalqaro va mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu hamkorliklar orqali kompaniya o'z korxonalarini muhandis-texniklar, moliyachi-iqtisodchilar va biznesni boshqarish yo'nalishidagi malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni maqsad qilgan.

Shuningdek, kompaniya tizim korxonalarida kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va kadrlar zaxirasini yaratish bo'yicha ichki o'quv dasturlarini ham amalga oshirmoqda. Bu jarayonda xodimlarning umumiy va maxsus bilimlarini oshirish, amaliy ish tajribasini boyitish hamda texnikum va kollej talabalarini ishlab chiqarish sexlariga jalb etish kabi tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jamiyat rejalashtirayotgan strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezonlaridan biri - bu mutaxassislarni tayyorlash uchun ajralmas va muntazam tizimni yaratishdir, bunda asosiy o'rinda tizim korxonalarini muhandis-texniklar, moliyachi-iqtisodchilar va biznesni boshqarish yo'nalishidagi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash dolzarb o'rin egallaydi.

Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi eng muhim bo'g'in Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hisoblanadi va bugungi kunda Universitet tomonidan Jamiyat hamda tizim korxonalari uchun avtomobilsozlik sanoatining o'ziga xos muxandislik, dizayn salohiyatini yaratish va rivojlantirishda asosiy bo'g'inga aylangan. Bundan tashqari Jamiyat va tizim korxonalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda Respublikadagi muhandislarni tayyorlovchi xalqaro va mahalliy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik

Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon mashinasozlik instituti kabi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik o'rnatilib "Dual ta'lim" tizimi joriy etish orqali talabalar nazariy bilim bilan birga amaliyotdan ham o'tish imkoniga ega. Talabalar uchun sanoat korxonalarida amaliyot o'tash, bitiruv malakaviy ishlari (BMllari)ni ishlab chiqarishdagi real loyihalar asosida tayyorlash imkoniyati yaratilgan. Avtomobil sanoatining barqaror rivojlanishida kasbiy kompetensiya tizimini shakllantirish va uni amaliyotda joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda "O'zavtosanoat" AJ tizimidagi korxonalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislardan nafaqat nazariy bilimlar, balki real ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish bo'yicha yuqori darajadagi muammo yechish ko'nikmalari, texnik tafakkur va texnologik savodxonlik talab etilmoqda.

Zamonaviy avtomobilsozlik mahsulotlarining tez yangilanib borishi, ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi, avtomatlashtirilgan tizimlar va robototexnika vositalarining joriy etilishi xodimlardan yuqori darajadagi texnologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bu esa ta'lim tizimi bilan uzviy bog'langan holda, modullashtirilgan o'quv dasturlari asosida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirishni talab etadi. "UzAuto Motors" AJ tomonidan ishlab chiqilgan ichki o'quv modullari orqali

yangi ishlab chiqarilayotgan avtomobil modellari bo'yicha servis xodimlari, texnologlar va muhandislar muntazam tayyorgarlikdan o'tadilar. Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mehnat muhitining xavfsizligini ta'minlash maqsadida sanoat xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Korxonalarda xavfsizlik bo'yicha muntazam brifinglar, treninglar o'tkazilishi, shuningdek, xodimlar uchun ishlab chiqilgan xavfsizlik qo'llanmalari bu boradagi amaliy ishlarning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Shu bilan birga, sohada kasbiy rivojlanish yo'li (career pathway) konsepsiyasi joriy etilmoqda. Bu orqali korxonalarda faoliyat boshlagan yosh mutaxassislar o'z kasbiy yo'lini aniq ko'rib chiqish, malaka darajalarini bosqichma-bosqich oshirish, lavozimiy o'sishga erishish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. "UzAuto Motors Powertrain" kompaniyasida mexanik muhandis lavozimida ish boshlagan mutaxassis, zarur bilim va ko'nikmalarni egallaganidan so'ng, navbatdagi bosqichlarda bosh muhandis yoki ishlab chiqarish bo'limi rahbari lavozimigacha ko'tarilishi mumkin. Umuman olganda, avtomobilsozlik tarmog'ining jadal rivojlanishi ta'lim, ishlab chiqarish va mehnat bozorini o'zaro integratsiyalashgan yagona tizimga aylantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan tushunchalarga asoslanish, mavjud tizimdagi real ehtiyoj va istiqbolli yo'nalishlarni hisobga olgan holda yondashish ayni muddaodir.

Kasblarning o'zgarib borishi va istiqbolli kasblar tahlili

Zamonaviy avtomobilsozlik tarmog'ida texnologik yangilanishlar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish va ekologik talablarning kuchayishi natijasida ayrim an'anaviy kasblarning ahamiyati pasayib, yangi, yuqori malakali va raqamli kompetensiyalarga asoslangan kasblar shakllanib bormoqda.

Yildan yilga o'rni yo'qolib borayotgan kasblar:

- Oddiy montajchilar – avtomatik yig'uv liniyalarining keng joriy etilishi tufayli, qo'lda bajariladigan ko'plab ishlar mashinalar tomonidan bajarilmoqda;

- an'anaviy texnik xizmat ko'rsatuvchilar (mexaniklar) – diagnostika tizimlarining kompyuterlashtirilishi sababli faqat qo'l mehnatiga asoslangan kasblar o'z dolzarbligini yo'qotmoqda;

- oddiy chizmachilari-loyihalovchilar - CAD (Computer-Aided Design) tizimlari keng qo'llanilgani sababli ushbu kasb o'rnini raqamli dizaynerlar egallamoqda.

Bugungi kunda rivojlanayotgan va talab yuqori bo'lgan kasblar:

Avtomobil diagnostika mutaxassislari – zamonaviy avtomobillarda mavjud elektron tizimlarni aniqlash va sozlash uchun maxsus bilim va dasturiy ta'minotlar bilan ishlash ko'nikmasi talab qilinmoqda;

sifat nazorati mutaxassislari (Quality Assurance/Control) – xalqaro standartlar bo'yicha mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlaydigan kasblarga talab ortmoqda;

yig'ish liniyasi operatorlari (robotlar bilan ishlovchilar) – yarim avtomatik yoki to'liq avtomatlashtirilgan liniyalar bilan ishlay oladigan texniklar va operatorlar.

Kelajakda yuksalishi kutilayotgan kasblar:

Elektromobil tizimlari muhandislari – elektr energiyasi asosidagi dvigatellar, batareyalar va zaryadlash tizimlari bo'yicha mutaxassislar;

Avtonom transport vositalari dasturchilari va muhandislari – sun'iy intellekt asosida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqish yo'nalishidagi yangi avlod kasblari;

avtomobil kiberxavfsizlik mutaxassislari – avtomobillarning IT infratuzilmasini himoya qilish bo'yicha muhandislar;

sanoat ma'lumotlarini tahlil qiluvchi (data analyst) – ishlab chiqarish jarayonlaridan yig'ilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi kasb egasi;

raqamli dizaynerlar va UX/UI mutaxassislari (avtomobil interyer va interfeys dizaynerlari) – foydalanuvchi qulayligi va ergonomikani ta'minlovchi dizaynchilar.

"O'zavtosanoat" AJning asosiy faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2024
Yengil avtomobillar	ming dona	280,1	235,8	327,6	395,4	395,9
ISUZU avtobuslari	dona	629	1002	1190	865	824
ISUZU yuk avtomobillari	dona	2439	2936	2639	3107	2450
D-Max pikaplari	dona	446	314	363	123	451
Yengil tijorat avtomobillari	dona	-	917	457	680	200
Avtomobil dvigatellari	ming dona	222,4	160,4	225,4	269,2	269,9

O'zAvtosanoat

"O'zavtosanoat" AJning hamkor tashkilotlari



4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozimlari va kasblar nomi	Lavozim va kasblar kodi
1	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
2	11200009	Direksiya direktori va o'rinbosarlari
3	11200010	Direktor va o'rinbosarlari
4	11200014	Ijrochi direktor va o'rinbosarlari
5	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
6	11200026	Muassasalar, tashkilotlar va korxonalar rahbarlarining maslahatchisi
7	12111002	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi boshlig'i (bosh buxgalter)
8	12111007	Ichki audit nazorati bo'yicha rahbarlar (bosh auditor)
9	12111010	Komplayens nazorat bo'yicha rahbarlar (bosh komplayens nazoratchi)
10	12111012	Moliya-iqtisod sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
11	12112001	Devonxona mudiri
12	12112006	Ma'muriy faoliyat sohasidagi bo'linma (bo'lim, xizmat, qism) rahbarlari
13	12112012	Xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i (mudiri)
14	12120004	Kadrlar/Xodimlar bo'yicha direktor
15	12190026	Ruxsatnomalar byurosi boshlig'i (mudiri)
16	12221001	Axborot xizmati rahbari (matbuot kotibi)
17	13211014	Bosh muhandis
18	13211022	Ishlab chiqarish bo'yicha direktor
19	13211025	Ishlab chiqarish sanoati sohasida boshqarma (bo'lim, bo'linma) boshlig'i (mudiri)
20	13211026	Ishlab chiqarish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
21	13211027	Ishlab chiqarish sanoatida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
22	13211028	Ishlab chiqarish sanoatida usta
23	13211032	Markaziy zavod laboratoriyasi boshlig'i
24	13212026	Qozonxona boshlig'i (direktori)
25	13220013	Bosh muhandis-texnik
26	13230016	Qurilishda (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
27	13241012	Ombor (tashish va saqlashni tashkil etish) mudiri
28	13241021	Tovarlarni yetkazib berish, tashish, saqlash va tarqatishda boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
29	13242001	Avtomobil transportida (byuro, xizmat, guruh, baza, sho'ba, smena, ombor, otryad, maydon, partiya) boshlig'i (mudiri)
30	13242015	Kolonna (avtomobil, mexanizatsiyalashgan) boshlig'i
31	13242016	Majmua (idora, uchastka, filial, markaz) boshlig'i (transport)
32	14120004	Oshxona boshlig'i (mudiri)
33	14200012	Xarid bo'yicha direktor
34	14390024	Ombor mudiri (muassasa va tashkilotlarda)
35	21203008	Statistik
36	21319003	Epidemiolog
37	21322001	Agronom
38	21332003	Ekolog
39	21411001	Ishlab chiqarishda texnik masalalar bo'yicha professional-mutaxassis
40	21411004	Muhandis-texnolog (umumiy)

41	21413001	Avtomatlashtirish bo'yicha muhandis
42	21413003	Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha muhandis
43	21414003	Sifat nazorati bo'yicha muhandis
44	21415003	Metrologiya bo'yicha muhandis
45	21415007	Standartlashtirish bo'yicha muhandis
46	21419001	Ekspluatatsiya va ta'mirlashni tashkil etish bo'yicha muhandis
47	21419003	Mexanik-texnologik uskunalar bo'yicha muhandis
48	21419006	Texnologik uskunalarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha muhandis
49	21441004	Muhandis-konstruktor
50	21441005	Muhandis-mexanik (umumiy)
51	21442004	Sanoat uskunalari va asboblari bo'yicha muhandis
52	21443005	Avtotransport vositalari bo'yicha muhandis
53	21447004	Ventilyatsiya va sanitar-texnik uskunalar muhandisi
54	21449007	Harakat xavfsizligi bo'yicha muhandis
55	21493007	Mehnat xavfsizligi va muhofazasi muhandisi
56	21493008	Sanoat xavfsizligi muhandisi
57	21494001	Loyiha-smeta ishlari bo'yicha muhandis
58	21499012	Yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha muhandis
59	21511006	Muhandis-elektrik
60	21524001	Asbobsozlik sohasida muhandis
61	21631001	Avtodizayner
62	21641001	Loyihalash muhandisi
63	21661002	Grafik dizayner
64	22110002	Umumiy amaliyot shifokori
65	22650001	Diyetolog
66	23510006	Metodist/uslubchi (umumiy yo'nalish)
67	23591012	Tashkiliy-ommaviy ishlar bo'yicha yo'riqchi
68	24111001	Auditor
69	24112002	Buxgalter
70	24113001	Buxgalteriya hisobi va xo'jalik faoliyati tahlili bo'yicha iqtisodchi
71	24121007	Moliyaviy rejalashtirish bo'yicha professional-mutaxassis
72	24135002	Komplayens bo'yicha professional-mutaxassis
73	24135003	Komplayens bo'yicha tahlilchi
74	24211001	Boshqaruv masalalari bo'yicha maslahatchi
75	24211002	Hududiy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo'yicha professional-mutaxassis
76	24212003	Biznes tahlilchi
77	24232005	Xodimlar bilan ishlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha professional- mutaxassis
78	24232008	Xodimlarni rivojlantirish bo'yicha professional-mutaxassis
79	24233004	Mehnatni tashkil qilish va me'yorlashtirish muhandisi
80	24240007	Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'yicha professional- mutaxassis
81	24313002	Logistika bo'yicha professional-mutaxassis
